



# IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (2)**



**2026**

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
2-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov** vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayev** vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyev** vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilkomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI .....	12
<b>Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH .....	16
<b>Shermuxeimedov Akmal Komiljonovich</b>	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА .....	21
<b>Салимова Зиёда Рустамжон қизи</b>	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH .....	27
<b>Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li</b>	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	32
<b>Azlarova Aziza Axrorovna</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	36
<b>Soyibova Matluba Ahmedboyevna</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....	41
<b>M.O. Yo'ldoshova</b>	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH .....	45
<b>Anvar Deberdiyev</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI .....	49
<b>Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich</b>	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIIY IMKONIYATLAR .....	55
<b>Ishimova Mohinur Absalomovna</b>	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORII ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) .....	61
<b>Zakirova Gulnoza Quدراتovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna</b>	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	67
<b>Iskanov Xoljigit Nurkosimovich</b>	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI .....	73
<b>Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	79
<b>Yuldashev Akmal Kiyomovich</b>	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH .....	83
<b>Abirova Nargizabonu</b>	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIIY RIVOJLANISHI .....	88
<b>Turayev Abduvohid Kuldashovich</b>	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
<b>Artiqova O'g'iljon Zafar qizi</b>	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	101
<b>Rustamov Zafar</b>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	107
<b>Met yakubov Azamat Djumanazarovich</b>	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH .....	111
<b>Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	116
<b>Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.</b>	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	121
<b>Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
<b>Melibayev Sodir Adilovich</b>	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI .....	135
<b>Sheraliev Abbos Xolmuminovich</b>	



# TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI

**Sheraliyev Abbas Xolmuminovich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Moliya va bank ishi” kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: [sheraliyevabbos89@gmail.com](mailto:sheraliyevabbos89@gmail.com)

ORCID: 0009-0004-4686-731X

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xorijiy va respublikamizdagi tijorat banklarining rentabelligini ta'minlashda aktivlar va regulyativ kapitalning holati tahlil qilinadi hamda natijalarni shakllantirish sabablari tushuntiriladi. Xususan, banklarning rentabellik ko'rsatkichlari, aktivlar va regulyativ kapital rentabelligining holati, qo'shilgan kapitalning regulyativ kapital hajmidagi salmog'i bo'yicha tahlillar o'tkazildi. Shuningdek, tahlil natijalari asosida salbiy holatlarning oldini olish maqsadida aktivlar rentabelligini takomillashtirish yuzasidan xulosalar chiqarilib, takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, aktivlar rentabelligi, regulyativ kapital rentabelligi, ustav kapitali, sof foyda, brutto aktivlar, qo'shilgan kapital va taqsimlanmagan foyda.

**Abstract.** This article analyzes the profitability of foreign and domestic commercial banks, the state of assets and regulatory capital in ensuring their profitability, and explains the reasons for the formation of the obtained results. In particular, the profitability indicators of banks, the profitability of assets and regulatory capital, and the share of added capital in the volume of regulatory capital were analyzed. Furthermore, based on the results of the analysis, conclusions were drawn and proposals were developed to improve the profitability of assets in order to prevent negative situations.

**Key words:** commercial banks, return on assets, return on regulatory capital, authorized capital, net profit, gross assets, added capital, and retained earnings.

**Аннотация.** В данной статье анализируется рентабельность зарубежных и отечественных коммерческих банков, состояние активов и регулятивного капитала в обеспечении их рентабельности, а также объясняются причины формирования полученных результатов. В частности, проанализированы показатели рентабельности банков, рентабельность активов и регулятивного капитала, а также доля добавленного капитала в объеме регулятивного капитала. Кроме того, на основе результатов анализа сделаны выводы и разработаны предложения по повышению рентабельности активов с целью предотвращения негативных ситуаций.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, рентабельность активов, рентабельность регулятивного капитала, уставный капитал, чистая прибыль, валовые активы, добавленный капитал и нераспределенная прибыль.

## KIRISH

Regulyativ kapital tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, regulyativ kapital hisobidan tijorat bankining joriy faoliyatida yuzaga kelgan zararlar qoplanadi. Bundan tashqari, regulyativ kapitalning tijorat banki passivlari umumiy hajmidagi salmog'ining oshishi uning to'lovga qobiliyatligini mustahkamlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Bu esa tijorat banklariga moliyaviy inqirozlar davrida raqobat muhitida barqaror faoliyat yuritish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, regulyativ kapital rentabelligi tijorat bankining bozor qiymatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun kapital rentabelligining nisbatan yuqori va barqaror darajasini ta'minlash bank rentabelligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

O'z navbatida, regulyativ kapital rentabelligining me'yoriy darajasini ta'minlash regulyativ kapitalning o'sish sur'ati bilan sof foydaning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmoni<sup>1</sup> bilan tasdiqlangan "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur Farmonga muvofiq bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini kengaytirish hamda sohada raqobat muhitini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishish doirasida quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutilgan:

- banklarni xususiyashtirish va 2030-yilga qadar davlat ulushi saqlanib qoladigan banklar sonini 4 taga qisqartirish;
- bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 2030-yilga qadar 720 trillion so'mga yetkazish;
- tijorat banklari depozitlari qoldig'ini 2030-yilga qadar 560 trillion so'mga yetkazish;
- islomiy moliyaning huquqiy asoslarini yaratish hamda 2030-yilga qadar 3 ta tijorat bankida islomiy moliya xizmatlarini yo'lga qo'yish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari aktivlari va regulyativ kapital rentabelligini tahlil qilish hamda ular yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirish maqsadida ushbu yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlar o'rganildi.

V. Dorofeevning xulosasiga ko'ra, bankning o'sish strategiyasi raqobatchilarni siqib chiqarishga qaratilgan agressiv raqobat siyosatini amalga oshirishni nazarda tutadi. Mazkur strategiya ayrim hollarda nisbatan yuqori rentabelli, biroq risk darajasi yuqori bo'lgan moliyaviy operatsiyalarga ustuvor yo'naltirilganlik bilan tavsiflanadi.

V. Dorofeevning ushbu xulosasi tijorat banklarining zamonaviy faoliyatiga xos muhim jihatlarni yoritadi. Jumladan, transmilliy banklar aktivlari umumiy hajmida kreditlar va derivativlar salmoqli o'rin egallaydi. Kreditlar hamda derivativlar banklarning ssuda kapitallari bozori va fond bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim moliyaviy instrumentlar hisoblanadi. Ayniqsa, derivativlar moliyaviy risklarni boshqarish, investitsion faoliyat samaradorligini oshirish hamda moliyaviy bozorlarda barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, derivativlar bozorining rivojlanishi va ushbu instrumentlarni tartibga solish mexanizmlarining takomillashib borishi tijorat banklarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

S. Kumokning fikriga ko'ra, hozirgi davrda tijorat banklari faoliyatida kapital rentabelligini oshirishda aktivlar va kapital o'rtasidagi optimal mutanosiblikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Raqobat muhitining rivojlanishi hamda kredit resurslari bozorining kengayishi banklarni moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanishga undaydi. Shu sababli, kapitalga to'g'ri keladigan foyda me'yorini oshirishning muhim omillaridan biri aktivlar qaytimi darajasini oshirish hisoblanadi. Mazkur yondashuv tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va rentabellik ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

N. Kunitsinaning ta'kidlashicha, tijorat banklari moliyaviy natijalarini tahlil qilishda ular tomonidan olinadigan daromadlarning hajmi va sifatini o'rganish markaziy o'rin egallaydi. Chunki daromadlar kredit tashkiloti foydasini shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Daromadlarning kamayishi, odatda, bankning moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelayotganligining obyektiv indikator sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, bank moliyaviy natijalarini tahlil qilishda yalpi daromadlar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

S. Urazovanning fikriga ko'ra, bankning moliyaviy barqarorligi — bu uning turli omillarning salbiy ta'siriga qaramasdan, o'z faoliyati ko'rsatkichlarini ma'lum chegaralarda saqlab qolish imkoniyatidir.

F. Mishkinning fikricha, tijorat bankining moliyaviy barqarorligi uning moliyaviy oqimlari va o'z mablag'lari manbalarining muvozanatlashgan holati bilan belgilanadi. Mazkur holat bankning ma'lum davr oralig'ida barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi hamda uning moliyaviy mustaqilligini ifodalaydi.

Haqiqatan ham, tijorat bankining moliyaviy qo'yilmalari va o'z mablag'lari manbalari o'rtasidagi mutanosiblik uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Biroq, tijorat banklari resurslarining asosiy qismini jalb qilingan mablag'lar tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda moliyaviy qo'yilmalar bilan jalb qilingan resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash ham muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan B. Berdiyarovning xulosasiga ko'ra, tijorat banklari regulyativ kapitalining passivlar umumiy hajmidagi salmog'i barqarorligini ta'minlash hamda sof foydaning o'sish sur'ati bilan jami aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash orqali aktivlar rentabelligining barqaror darajasiga erishish mumkin.

Tijorat banklari regulyativ kapitalining passivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash bankning to'lovga qobiliyatligini oshirish imkonini beradi. Biroq, mazkur holat har doim ham bankning moliyaviy barqarorligi oshishiga olib kelmasligi mumkin. Chunki kapital qimmat moliyalashtirish manbasi hisoblanadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>



Shu bilan birga, B. Berdiyarovning sof foydaning o'sish sur'ati bilan jami aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash haqidagi xulosasi respublikamiz tijorat banklari faoliyati uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy yondashuvlardan ko'rinadiki, iqtisodchi olimlar banklar rentabelligini ularning tashqi ta'sirlarga qaramasdan o'z funksiyalarini samarali bajarish imkoniyati bilan bog'liq holda talqin qilmoqdalar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy maqsadi tijorat banklarining aktivlari va regulyativ kapitali ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ilmiy xulosalarni shakllantirish hamda banklar rentabelligini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqolada xorijiy banklardan biri bo'lgan AQSHning "Bank of America" banki hamda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridan AT "Asakabank" va Mikrokreditbankning yillik hisobotlari asosida olingan moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda statistik ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish, taqqoslash hamda tizimli tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligini baholashda aktivlar rentabelligi va regulyativ kapital rentabelligi muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Regulyativ kapital — bank faoliyatini tartibga solish hamda prudensial normativlar hisob-kitobini amalga oshirish maqsadida hisoblash yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir.

Aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi tijorat bankining sof foydasini uning brutto aktivlariga bo'lish va olingan natijani 100 foizga ko'paytirish orqali aniqlanadi.


Aktivlar rentabelligi ko'rsatkichining me'yoriy darajasi mavjud emas. Shu sababli, uni baholashda moliyaviy tahlilning qiyosiy tahlil usulidan foydalaniladi. Mazkur usul quyidagi ikki shaklda qo'llaniladi:

- tijorat bankining aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi boshqa banklarning mos ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi;
- tijorat bankining aktivlar rentabelligi ko'rsatkichining joriy davrdagi darajasi oldingi davrlar ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi.

Kapital rentabelligi ko'rsatkichi tijorat bankining sof foydasini uning regulyativ kapitaliga bo'lish va olingan natijani 100 foizga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Aktivlar rentabelligi ko'rsatkichidan farqli ravishda, kapital rentabelligi ko'rsatkichining me'yoriy darajasi mavjud bo'lib, u 15 foizni tashkil etadi.

Mazkur tadqiqotda xorijiy banklardan AQSHning "Bank of America" banki, mahalliy banklardan esa AT "Asakabank" va Mikrokreditbankning rentabellikni tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlari — aktivlar rentabelligi hamda regulyativ kapital rentabelligi ko'rsatkichlari yillik hisobotlar asosida tahlil qilindi (1-rasm).




1-rasm. AQSHning "Bank of America" bankida brutto aktivlar va regulyativ kapital rentabelligi, foizda<sup>2</sup>

<sup>2</sup> Rasm muallif tomonidan "Bank of America" bankining 2020–2024-moliyaviy yillar yakunlari bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari ("Consolidated Balance Sheet" va "Consolidated Statement of Income") ma'lumotlari asosida tuzilgan.



1-rasmdan ko'rish mumkinki, "Bank of America" bankida brutto aktivlar rentabelligi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Shuningdek, 1-rasm ma'lumotlari asosida aniqlanishicha, "Bank of America" bankida regulyativ kapital rentabelligi 2021–2023-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan (2-rasm).



2-rasm. AT "Asakabank"da aktivlar va regulyativ kapital rentabelligi, foizda<sup>3</sup>

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, AT "Asakabank"da 2020–2022-yillarda aktivlar rentabelligi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Shuningdek, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Mazkur holat AT "Asakabank" rentabelligini ta'minlash nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi.


2-rasm ma'lumotlaridan yana ko'rinadiki, AT "Asakabank"da 2020–2024-yillarda kapital rentabelligi ham pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bundan tashqari, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Mazkur holat bank rentabelligini ta'minlash nuqtayi nazaridan salbiy omil sifatida baholanadi (1-jadval).

1-jadval. Mikrokreditbankda aktivlar va kapital rentabelligi, foizda<sup>4</sup>

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Aktivlar rentabelligi	0,3	0,4	0,1	0,4	3,4
Kapital rentabelligi	2,3	0,2	0,3	1,0	22,5

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Mikrokreditbankda aktivlar rentabelligi 2020–2021-yillarda o'sish sur'atiga ega bo'lgan. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 3,1 foiz bandga oshgan.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Mikrokreditbankda kapital rentabelligi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Mazkur ko'rsatkichning eng yuqori darajasi aynan 2024-yilda kuzatilgan (3-rasm).



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida qo'shilgan kapitalning regulyativ kapital hajmidagi salmog'i, foizda<sup>5</sup>

3 Rasm muallif tomonidan AT "Asakabank"ning 2020–2024-moliyaviy yillar yakunlari bo'yicha e'lon qilingan moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

4 Jadval muallif tomonidan Mikrokreditbankning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

5 Tijorat banklari jamlanma balansi. – URL: [O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki](https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz)



3-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida qo'shilgan kapitalning regulyativ kapital tarkibidagi ulushi 2020–2024-yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilgan.

Jumladan, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich atigi 0,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda sezilarli o'sish kuzatilib, 0,7 foizga yetgan. Bu esa oldingi davrga nisbatan qariyb ikki barobar o'sishni anglatadi. 2022-yilda mazkur ko'rsatkich 1,0 foizga ko'tarilib, o'sish sur'ati yanada mustahkamlangan. Eng yuqori natija 2023-yilda qayd etilib, qo'shilgan kapitalning regulyativ kapitaldagi ulushi 1,4 foizni tashkil etgan.

Demak, so'nggi besh yil davomida ushbu ko'rsatkich 4,6 barobardan ortiq oshgan. Mazkur jarayon tijorat banklarida kapital yetarilishini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda risklarni boshqarish mexanizmlarining takomillashib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, qo'shilgan kapitalning regulyativ kapitaldagi ulushining ortib borishi banklarning moliyaviy mustahkamligini ta'minlash bilan bir qatorda, ularning kreditlash imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida tijorat banklari regulyativ kapitalining passivlar umumiy hajmidagi salmog'ining pasayib borayotganligi kuzatildi. Jumladan, tahlil natijalari AT "Asakabank"da 2020–2024-yillarda kapital rentabelligi pasayish tendensiyasiga ega bo'lganligini ko'rsatdi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkichning 2024-yildagi darajasi 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Mazkur holat bank rentabelligini ta'minlash nuqtayi nazaridan salbiy omil hisoblanadi. Bundan tashqari, aktivlar rentabelligining past va beqaror darajasi aniqlandi. Tahlillar natijasiga ko'ra, AT "Asakabank"da 2020–2022-yillarda aktivlar rentabelligi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Shu bilan birga, mazkur ko'rsatkichning 2024-yildagi darajasi 2020-yilga nisbatan sezilarli ravishda pasaygan. Ushbu holat bankning rentabellik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida qo'shilgan kapitalning regulyativ kapital hajmidagi salmog'ining 2021-yildan keyingi keskin o'sish tendensiyasi ham kuzatildi. Bu esa tijorat banklari kapital bazasini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy samaradorligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida aktivlar rentabelligini ta'minlash maqsadida sof foydaning bank aktivlarining riskka tortilgan summasiga nisbatan optimal darajasini shakllantirish zarurligi aniqlandi. Buning uchun sof foydaning o'sish sur'ati bilan riskka tortilgan aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, sof foydaning riskka ta'sirchanligini baholash aniqligini oshirish hamda tijorat banklari yalpi daromadi tarkibida investitsiya operatsiyalaridan olinadigan foizli daromadlarning barqaror ulushini ta'minlash orqali qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan daromadlarning yillik o'sish sur'atining maqbul chegaraviy darajasiga erishish lozim. Shuningdek, qo'shilgan kapital va taqsimlanmagan foyda hisobidan birinchi darajali kapital hajmini oshirish orqali kapital rentabelligini ko'paytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki tijorat banklarining birinchi darajali asosiy kapitali barqaror moliyalashtirish manbalaridan, jumladan, bankning to'liq to'langan oddiy aksiyalari, oddiy aksiyalar bo'yicha qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda hamda ozchilik ulush egalari bank yig'ma balansiga birlashtiriladigan korxonalaridagi ulushlaridan tashkil topadi. Shu sababli, birinchi darajali asosiy kapitalning birinchi darajali kapital umumiy hajmidagi barqaror ulushini ta'minlash tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Dorofeev, V. D. Strategicheskoye planirovaniye kommercheskogo banka // Izvestiya vysshix uchebnykh zavedeniy. Povoljskiy region. Obshchestvennye nauki. – 2013. – № 2 (26). – S. 168.
3. Kumok, S. I. Analiz deyatelnosti kommercheskix bankov. – Moskva: Veche, 1996. – S. 153.
4. Kunitsina, N. N. Biznes-planirovaniye v kommercheskom banke. – Moskva: Finansy i statistika, 2007. – 304 s.
5. Urazova, S. A. Ustoychivost bankovskoy sistemy: teoreticheskiye i metodologicheskiye aspekty // Bankovskoye delo. – Moskva, 2006. – № 12. – S. 26–32.
6. Mishkin, F. S. Global Financial Instability: Framework, Events, Issues // Journal of Economic Perspectives. – 1999. – Vol. 13. – № 4.
7. Berdiyarov, B. T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 30.
8. Mikrokreditbank. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlar (2019–2023-yillar). – URL: [Mikrokreditbank rasmiy sayti](https://mikrokreditbank.uz)
9. Asakabank. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlar (2020–2024-yillar). – URL: [Asakabank rasmiy sayti](https://asakabank.uz)
10. "Bank of America" bankining 2020–2024-moliyaviy yillar yakunlari bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan. – URL: [Bank of America rasmiy sayti](https://bankofamerica.com)
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti. – URL: [O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki](https://ozbektbank.uz)



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5 (2)

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---